

ZAMONAVIY AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB O‘ QITUVCHI PROFESSIONAL KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Egamberdiyeva Gulzoda

*Andijon davlat chet tillari instituti 2-bosqich talabasi,
Umnov D.G. Andijon davlat chet tillari instituti
Ijtimoiy -gumanitar fanlar kafedrasida dotsent*

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) ta'lim sifatini oshirish va pedagoglarning kasbiy mahoratini takomillashtirishdagi roli tahlil qilinadi. Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar, onlayn platformalar va interaktiv vositalardan samarali foydalanish o'qituvchining pedagogik mahoratini oshirish, dars jarayonini yanada qiziqarli va samarali tashkil etish imkonini yaratadi.

Kalit so'zlar: AKT, pedagog, ta'lim jarayoni, onlayn platformalar, raqamli texnologiyalar, interaktiv vositalar.

Annotation: This thesis analyzes the role of modern information and communication technologies (ICT) in improving the quality of education and enhancing the professional skills of teachers. The effective use of digital technologies, online platforms, and interactive tools in the educational process helps increase the pedagogical competence of teachers and creates opportunities to organize lessons in a more engaging and effective way.

Keywords: ICT, teacher, educational process, online platforms, digital technologies, interactive tools.

Аннотация В данной работе анализируется роль современных информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в повышении качества образования и совершенствовании профессионального мастерства педагогов. Эффективное использование цифровых технологий, онлайн-платформ и интерактивных средств в образовательном процессе способствует повышению педагогической компетентности учителя и создаёт возможности для организации проведения более интересных и эффективных занятий.

Ключевые слова: ИКТ, педагог, образовательный процесс, онлайн-платформы, цифровые технологии, интерактивные средства.

AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalar) zamonaviy ta'lim resurslari, ta'lim sifatini oshirish, pedagoglar mahoratini yuksaltirishda, interaktiv metodlar va masofaviy o'qitish tizimini taqdim etadi. Hozirda bu texnologiyalar ta'lim sifatini oshirib, o'quvchilarni darslarga qiziqishi samarali darajada oshgan. O'quvchilarni jalb

qilish uchun multimedia, elektron doskalar tashkil qilindi va ko'plab umum ta'lim muassasalariga topshirildi. Elektron kutubxona va onlayn platformalar orqali axborotni yanada tez va samarali qildi. Va masofaviy ta'limni rivojlantirish, unda AKTdan keng foydalanish. Eng muhimi o'quvchi xohlagan joydan turib ta'lim olishi mumkin.

Shu bilan birga bu metod pedagoglarni ham raqamli savodxonligini oshirib, kasbiy rivojlanishida ham qo'l kelmoqda. O'qituvchilar AKT vositalarini qo'llash orqali o'z kasbiy salohiyatini yuksaltiradi. Onlayn kurslar va vebinarlar orqali pedagoglar tajribalarini doimiy oshirib borishyapti va axborot texnologiyalaridan foydalanib, dars o'tishning yangi, zamonaviy usullarini joriy etyapti. Pedagogning AKTdan foydalanish kompetensiyasi uning innovatsion faoliyatini rivojlantiradi va ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi.[1]

"Ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko'tarish, milliy kadrlar tayyorlashning yangi tizimini barpo etish, kelajak uchun barkamol, salohiyatli avlodni tarbiyalash maqsadida: " Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dasturni hayotga tatbiq etish ishlari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi deb hisoblansin" deyiladi. [2]

Mazkur ishda zamonaviy pedagogik adabiyotlar, ilmiy maqolalar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi qo'llanilishiga oid nazariy manbalar tahlil qilindi. Shuningdek, pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda AKT vositalaridan foydalanish imkoniyatlari o'rganildi.

"Ta'lim jarayoniga AKTni tatbiq etish shunchaki kompyuterdan foydalanish emas, balki o'qitishning an'anaviy metodlarini qayta ko'rib chiqish va talabning mustaqil bilim olish traektoriyasini yaratishdir".[3] Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Onlayn kurslar va vebinarlar orqali pedagoglar o'z tajribalarini muntazam oshirib borishlari mumkin.

Shu bilan birga, AKT vositalari o'qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirib, ularning kasbiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Natijada pedagoglar dars jarayonida zamonaviy metod va vositalardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

"Texnologiyalar o'z-o'zidan o'qitmaydi, lekin ular o'quvchiga murakkab tushunchalarni vizuallashtirish va real dunyo muammolarini simulyatsiya qilish imkonini beradi, bu esa o'zlashtirish koeffitsientini keskin oshiradi."[4] Kadrlar tayyorlash milliy dasturida uzluksiz ta'lim tizimining eng asosiy bosqichlaridan biri sifatida kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bosqichi keltirilgan bo'lib, ta'lim tizimini isloh qilish jarayonlarida pedagog xodimlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash jarayonlari ishtirokchilariga zaruriy va yetarli darajada shart-sharoitlarni yaratib berilishidan asosiy maqsad har tomonlama rivojlangan, yangilanish va rivojlanish jarayonlariga moslashuvchan, yuksak ma'naviy va pedagogik madaniyatga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda

mustaqil fikrlash va innovatsion faoliyat ko'rsata olish mahoratiga ega bo'lgan, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan o'qituvchi shaxsini tarbiyalashdan iborat[5].

O'qituvchi AKTni maqsad emas, balki vositaga aylantirishi kerak. Darsda qaysi dasturdan foydalanishdan qat'i nazar (masalan, Kahoot yoki Prezi), asosiy e'tibor o'quvchining mavzuni qanchalik chuqur tushunganiga qaratiladi. AKT o'qituvchini faqat "ma'lumot yetkazuvchi" rolikidan "moderator" va "fasilitator" (yo'naltiruvchi) roliga o'tkazadi. Bu esa o'quvchilarda mustaqil bilim olish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Zamonaviy pedagog nafaqat o'z fanini bilishi, balki o'sha fanni raqamli avlod tilida (vizual, interaktiv va tezkor) tushuntira olishi shart. Bu esa ta'lim sifatini yangi, jahon standartlari darajasiga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N. Muslimov va boshqalar. "Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari". Toshkent: Sano-standart, 2015.
2. Madaminov.N, 2023. O'qituvchilarni kasbiy mahoratini takomillashtirish. "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal, 4(5), 100-1004.
3. Abduqodirov A.A., Pardaev A.X. "Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti". – T.: Fan, 2009.
4. Kozma, R. B. "Technology of Learning: A Review of the Research". Educational Technology Research and Development, 39(2).
5. S.T.Turg'unov, B.X.Daniyarov, M.A.Umaraliyeva, Sh.S.Shodmonova,
6. Sh.M.Turg'unova, H.M.Tojiboyeva. "O'qituvchilarning kasbiy mahorat va kompetentligini rivojlantirish", Toshkent: "Sano-standart", 2012.